



## NOGIRONLARNI IJTIMOYIY HIMOYALASHDA INKLYUZIV TA'LIMNING AHAMIYATI

Maxmudova Gulnora Maxmasodiq qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali

Ijtimoiy ish yo`nalishi 3-kurs talabasi

[Maxmudovagulnora93@gmail.com](mailto:Maxmudovagulnora93@gmail.com)

Ilmiy rahbar: Xamidova Diyora Rustam qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo`rg`on filiali Pedagogika va tillarni o`qitish fakulteti Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim, sport kafedrası o`qituvchisi.

[Diyora.xamidova@gmail.com](mailto:Diyora.xamidova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning maqsad va vazifalari bilan birgalikda uning ijtimoiy ahamiyati va jamiyatga ta'sir etishi to'g'risida fikrlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari ushbu jamiyat vakillari uchun qilinayotgan harakatlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, ijtimoiylashuv, nogironlik, oila, yoshlar, empatiya, davlat, jamiyat.

**Аннотация:** В данной статье наряду с целями и задачами инклюзивного образования приводятся мнения о его социальной значимости и влиянии на общество. Кроме того, дана информация о действиях, предпринятых для представителей данного общества.

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, социализация, инвалидность, семья, молодежь, эмпатия, государство, общество.

**Annotation:** In this article, together with the goals and tasks of inclusive education, there are opinions about its social importance and impact on society. In addition, information is given about the actions taken for the representatives of this society.



**Key words:** Inclusive education, socialization, disability, family, youth, empathy, state, society.

Bugungi kunda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lami va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub zamirida inson manfaatlariga ustuvorlik berilgan va ushbu yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z hayotida his etishlari uchun salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligining guvohi bulishimiz mumkin. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada e'lon qilingan "ijtimoiy davlat" tamoyillari inobatga olinib nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish zarurligi bugungi kundagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim — bu barcha o'quvchilarga, ularning jismoniy farqlaridan qat'iy nazar teng huquqlarini va sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan tushunchadir.

Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi ta'limni boshlash imkoniyatiga ega bo'lgan barcha bolalar, shu jumladan alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga qamrab olishdir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarga ta'lim olish imkoniyatini beradi va ana shunday bolalarni uzluksiz umumiy ta'lim tizimiga kiritadi.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bolgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan bolib, jismoniy aqliy, sensor(sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar(shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etilishidir. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishida jahon miqyosida bir qancha deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etadi. Inklyuziv ta'limni bugungi kunga qadar hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Hattoki ba'zi davlatlarda umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron



bolalarning ta`lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta`limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilan bog`liq emas. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto`g`ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsa hisoblanadi. Ya`ni inklyuziv ta`limni e`tirof etgan holda, aholi o`rtasida targ`ibot va tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi masaladir. Inklyuziv ta`lim tizimida jahon miqyosida amaliyotga joriy etish borasida bugungi kunda ham bir qancha muammolar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- salbiy munosabat
- hamjamiyatga ko`rinmaslik
- moddiy mablag` muammolari
- jismoniy moslashtirish
- sinfidagi o`quvchilar soni
- qaramlik
- jinsiy belgilarga qarab kamsitish
- favqulodda vaziyatlar
- mojorolar va qochoqlar

Aynan ushbu muammolarning mazmuni shundaki, ehtiyojli bolalarning ta`lim olishlari uchun to`siq bulishlaridir. Ya`ni ota-onalar, umumta`lim muassasa xodimlari, hamjamiyat a`zolari va hatto ehtiyojli bolalarning o`zlaridagi umumta`lim muassasalarida ta`lim tarbiya olishga nisbatan qarshiliklari buni istamasliklaridir. Bunga sabab nogironlarga nisbatan insonlardagi noto`g`ri fikr, ular to`g`risida ma`lumotlarning yetishmasligi, nogiron bolalarning chegaralangan muhitda o`sganligi va boshqalardir. Ota onalar va oilalar inklyuziv ta`limning asosiy va eng muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ko`p hollarda alohida yordamga muhtoj bolalarning ota-onalari o`z bolalarining ta`limga oid huquqlari va boshqa imkoniyatlari haqida noto`g`ri tushunchaga ega bo`lganlari natijasida bu bolalarga to`g`ri ta`lim berishni talab qilmaydilar. Ota-onalar o`z bolalaridagi nuqsonlar tufayli uyalish va o`zini yo`qotib qo`yish kabi to`siqlarni engishlari



haqida ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Hamma ota-onalarga inklyuziv ta'limning mazmuni nimalardan iboratligi va bu bolalarga qanday imkoniyatlar berishi haqida batafsil ma'lumot berilishi zarur. Ota-onalarning o'z bolalariga ta'limli yordam ko'rsatishini cheklamaslik bilan bir jihatdan kengaytirish zarur. Shunday yo'l bilan ota-onalar bolalarni o'quv muassasalariga joylashtirish va o'quv dasturlarini aniqlik, shuningdek o'quv jarayonini uyda yoki boshqa joyda davom ettirishga oid muhokamalarga jalb qilishi zarur. Ular farzandlarining huquqlarini himoya qilishlari, o'qituvchilar bilan doimiy aloqada bo'lib farzandlarini nazorat qilishlari va farzandlarining ijtimoiy va hissiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi kerak bo'ladi. Psixolog olimi L.M.Krijanovskayaning fikricha, inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining samarali bo'lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog'langan bo'lishi lozim.<sup>1</sup> Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalar uchun inklyuziv ta'lim bolaning ijtimoiylashuvi va har tomonlama rivojlanishi uchun imkoniyatdir.

Inklyuziv ta'lim o'qituvchilar va ularning kasbiy amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Inklyuziv sinflardagi o'qituvchilardan o'quvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun keng qamrovli o'qitish strategiyalari va o'qitish yondashuvlarini ishlab chiqish talab etiladi. O'qituvchilar ham inklyuziv sinf madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar o'zlarini qadrligi, hurmatli va erkin his qiladigan muhitni yaratish uchun mas'uldirlar. Bu hamkorlikni, tengdoshlarning qo'llab-quvvatlash va o'quvchilar o'rtasida ijobiy munosabatlarni rivojlantirishni, noto'g'ri fikrlash, kamsitish yoki zo'rvonlik holatlarini hal qilishni o'z ichiga oladi. Tarbiya borasida gap ketganda esa sog'lom yoshlar o'z tengdoshlarining turli xil ehtiyojlarini tan olishi va qo'llab-quvvatlashi uchun empatiyani rivojlantirishi, birgalikda to'siqlarni bartaraf etishi, inklyuzivlikni targ'ib qilishi, qobiliyatidan qat'i nazar mazmunli hissa qo'shishi mumkin bo'lgan jamiyatni yaratishga harakat

---

<sup>1</sup> Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов - М.: <<Владос>>, 2013. -83-б.



qilishlari kerak bo'лади. Bunday munosabat yanada mehr-oqibatli va adolatli kelajakka yo'l ochadi.

**Empatiya** -bu boshqa insonning ichki dunyosi va holatini ongli ravishda tushunish, hamdardlik bildirish qobiliyati. Empatiya hamdardlik-antipatiya yoki rahmshafqatdan tubdan farq qiladi, chunki u insonning qanday vaziyatda ekanligini tasavvur qilish, uning his-tuyg'ularini hukm va tanqidsiz, tushunishga urinishga hamda suhbatdoshning qiyofasiga kirishga asoslangan. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, sog'lom yoshlar o'zlarining nogironligi bo'lgan tengdoshlariga nisbatan hamdardlik va tushunishni namoyon etib, ijobiy muloqot va do'stlikni rivojlantirishlari lozim. Muloqot og'zaki va og'zaki bo'lmagan signallarni o'z ichiga olgan samarali muloqot sog'lom va nogiron yoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni osonlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu muqobil aloqa usullarini o'rganish va foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmoqlari: Sog'lom va nogiron yoshlar o'zaro hamkorlik, o'zaro yordamni osonlashtirishi mumkin bo'lgan ta'lim muassasasi ichidagi qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishlari kerak bo'лади. Ta'lim muassasalarida sog'lom yoshlar o'zlarining nogironligi bo'lgan tengdoshlariga yo'l-yo'riq va yordam ko'rsatib, ijobiy-ijtimoiy o'zaro munosabatlarni rivojlantirishlari mumkin bo'lgan tengdoshlarning murabbiyligi va qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirishi mumkin. Ta'lim muassasalari o'quvchilar o'rtasida nogironlikni tushunish va qabul qilishni rag'batlantirish, o'zaro hamkorlik uchun yanada inklyuziv muhitni yaratish uchun xabardorlik ta'lim dasturlarini tashkil qilishlari mumkin.

Barcha bolalarning individual psixologik shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning ikoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq



rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra "Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi" fikri bilan ham tasdiqlash mumkin. Maxsus yordamga muhtoj bolalar asosiy muamolarini ular o'zlari yashab turgan muxitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni o'z bo'yniga olmas ekan, cheklab qo'yilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy integrasiyaga erishish qiyin. Maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish ya'ni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor: Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalanaдилar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar. Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonmayon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi. Bu ishlarni muvaffaqiyati xar bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan bolalar o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat



ko'rsatishlarini talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi. Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyat darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-xunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalandilar, ijtimoiy hayotda teng xuquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar. Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregasion-maxsus, yopiq turdagi muasasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi bolalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega.

Xulosa qilib aytganda jamiyatda insonlar orasida nogiron bolalar haqida bilimlarning yetishmasligi oqibatida maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Agarda biz nogiron bolalarning qobiliyatlari, huquqlari va ehtiyojlarini muntazam ravishda qadrlamasak, bolalarda o'ziga va qobiliyatiga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga sababchi bo'lishimiz mumkin. Shu sababli Inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirishimiz, bolalarga bilim olishi uchun do'stona munosabat va o'qishga imkon beruvchi muhitni yaratishimiz maqsadga muvofiq. "Ma'lum bir shaxs intellektual fikrlash salohiyatiga ega bo'lishi uchun ijtimoiylashuv bosqichidan o'tishi, ya'ni u yoshlikdan ijtimoiy munosabatlar tizimida faol ishtirok etishi kerak".<sup>2</sup>

---

<sup>2</sup> M.S.Abbasova. Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog'lom ma'naviy raqobatning ta'siri. Monografiya. – Samarqand: "Fan bulog'i" nashriyoti, 2023-yil, 112-bet.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Madatov I.Y. Inklyuziv ta'lim. O`zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi SamDU Kattaqo`rg'on filiali, 2024-y.
2. M.S.Abbasova. Jamiyat ijtimoiy muhitini yangilashga sog'lom ma'naviy raqobatning ta'siri. Monografiya. – Samarqand: “Fan bulog‘i” nashriyoti, 2023-yil, 112-bet.
3. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов.- М.: <<Владос>>, 2013. - 83-б.
4. Mansurovna, A. M. (2023). Inklyuziv maktabgacha ta'lim: zamonaviy rivojlanish jarayonlari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 439-440.